

## BUXORO ERONIYLARIDA FARZANDGA ISM TANLASH AN‘ANASI

*Kalonova Iroda Turgunovna, BuxDU erkin izlanuvchisi (PhD),  
Buxoro innovatsion ta‘lim va tibbiyot universiteti assistenti*

## THE TRADITION OF CHOOSING A CHILD’S NAME AMONG THE IRANIANS OF BUKHARA

*Kalonova Iroda Turgunovna, freelance researcher (PhD) of  
Bukhara State University, assistant of Bukhara Innovative  
Education and Medical University*

## ТРАДИЦИЯ ВЫБОРА ИМЕНИ РЕБЁНКУ У ИРАНЦЕВ БУХАРЫ

*Калонова Ирода Тургуновна, независимый исследователь  
Бухарского государственного университета (PhD), ассистент  
Бухарского университета инновационного образования и  
медицины*

**Annotatsiya:** *Har bir xalq o‘zining betakror marosimlariga ega. Shulardan biri farzandga ism qo‘yish an‘anasiidir. Buxoro eroniylarida farzandga ism qo‘yish an‘anasi tarixiy va madaniy merosga asoslangan. Ushbu maqolada Buxoro vohasi eroniylarining farzand tug‘ilishi va unga ism qo‘yish bilan bog‘liq an‘analari etnografik aspektida tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** “Sohib dua”, irim-sirimli nomlar, ramziy ismlar, Mirzo, Begim, Said.

**Abstract:** *Each ethnic group, nation has its own independent, unique and inimitable rituals. One of them is the tradition of naming. Traditions and the order of naming a child among the Iranians of Bukhara are based on centuries-old historical and cultural heritage. In the article, from an ethnographic point of view, various rites of birth and naming children of the Iranians of the Bukhara oasis are analyzed and studied.*

**Keywords:** “Sahib dua”, mysterious names, symbolic names, Mirza, Begim, Said.

**Аннотация:** У каждого народа есть свои уникальные ритуалы. Одна из них – традиция давать имя ребенку. Традиция давать имя ребенку у бухарских иранцев основана на историческом и культурном наследии. В данной статье с этнографической точки зрения анализируются традиции иранцев Бухарского оазиса, связанные с рождением и наречением детей.

**Ключевые слова:** «Сахибду», суеверные и приметные имена, символические имена, Мирза, Бегим, Сайд.

**KIRISH.** Ism – bu bola oladigan birinchi sovg‘adir. Ota-onalar chaqaloqqa xohlagancha nom berish huquqiga ega. Biroq tanlangan ism, o‘z egasi sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan bo‘lmasligi lozim. Shaxsning ismi murojaat qilishda, insonning shaxsini aniqlash va yozuvlarni yuritish uchun huquqiy va ma’muriy maqsadlar: tug‘ilganlik

to‘g‘risidagi guvohnomalarda, pasportlar va litsenziyalar kabi rasmiy hujjatlarda ishlatalidi. Nutq odobiga ko‘ra, rasmiy muloqotda suhbatdoshning ismi unga qo‘shib otasining ismi bilan murojaat qilinadi.

Kishi ismlari shaxsiy o‘zligni, oilaviy tarixni va madaniyatini o‘z ichiga oladi.



<https://orcid.org/0009-0007-7048-3190>

e-mail:  
[kalonovairoda89@gmail.com](mailto:kalonovairoda89@gmail.com)

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Mavzuni o‘rganishda tipologik, qiyosiy tahlil, etnografik va etnologik metodlardan, sotsiologik so‘rov tahlilidan, tarixiy-taqqoslash va davrlashtirish usullaridan foydalanildi.

Marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy xarakterga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir[1-92]. Boshqacha qilib aytganda, marosimlar urf-odatlarning barqarorlashgan shaklidir. Urf-odat va marosimlar milliy tarbiyaning qudratli quroli, xalqni yagona bir ma’naviy jipslikka birlashtirish omili hisoblanadi. Marosimlar orqali tarixiy-etnografik yo‘nalishda muayyan bir millatning ma’naviy dunyosi namoyon bo‘ladi[2-9]. Shulardan biri ism qo‘yish an‘anasiga ko‘ra yangi tug‘ilgan chaqaloqqa nom qo‘yish, munosib ism tanlash qadimgi davrlardan ota-onas, qarindosh-urug‘larning erkin huquqi bo‘lgan. Har bir xalq ism tanlashda o‘z ona tilining so‘z boyligi, imkoniyatlariga tayangan[3-176].

**MUHOKAMA VA MUНОZARA.** Buxoro eroniylarida bolaga ism qo‘yish marosimi quydagi tartibda amalga oshiriladi: bolaga ism qo‘yadigan kishi qibлага qarab o‘tiradi, avval go‘dakning o‘ng qulog‘iga azon aytildi va ismi tilga olinadi. Keyin chap qulog‘iga takbir aytishadi va ism takrorlanadi. So‘ngra bola uchun duolar o‘qiladi, imkon bo‘lsa qo‘y so‘yiladi, beva-bechoralarga ehsonlar beriladi, ismi e‘lon qilinadi. Shu tariqa chaqaloqning dunyoga kelishi, tug‘ilishi ma’lum qilinadi. Eroniylar bugungi kunda ham o‘z oilaviy an‘analari, tarixiy qadriyatlar va e‘tiqodlariga asoslanib farzandlariga ism qo‘yishadi[4]. Ism qo‘yish quydagi xususiyatlarga ko‘ra ajratiladi.

1. Qo‘yilgan ismlar tug‘ilish holatlari yoki tashqi xususiyatni ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbeklarda yo‘lda tug‘ilgan bolani Yo‘lchi – “sayohatchi”, otasi vafotidan keyin tug‘ilgan chaqaloqqa “Yodgor”, tanasining qaysidir qismida ortig‘i bilan yoki nori, ajralib ko‘zga ko‘rinib turadigan xoli bilan tug‘ilgan bolalarga – Ortiq, Xoldor deb nom qo‘yilgan[5-202] bo‘lsa, eroniylarda ham shu kabi holatlarda o‘g‘illar Ziyod, ortiqli qizlar Ziyoda, xollari ko‘p bolalarga Xolmurod, Xolali deb ism qo‘yiladi.

2. Buxoro eroniylarida tilaklarni ifodalovchi ismlar ham mavjud. Eng yaxshi jismoniy va ruhiy fazilatlarni, omadli taqdirmi tilovchi, boshqa

tillardan kirib kelgan umumiyl ismlar: Sharof (arabcha “ulug‘lovchi”), Hanifa (arabcha “mustahkam”, “ustuvor”), Murod (arabcha “maqsadli”, “orzu qilingan”), Rustam (Avestodan “botir”)[6], Mehranali (forscha “suyukli”, “aziz” yoki “Alining suyuklisi”), Meddi (Mahdining o‘zgargan formasi, arabcha “to‘g‘ri yo‘lda”, “haq yo‘lida yuruvch bola”), Miran (arabcha “shohlar shohi”), Kurush – “po‘latdek mustahkam”, Ashur (muhamram oyining 10 sanasida tug‘ilgan bola)[7-118] va boshqalar.

3. Irim-sirimli nomlar. Masalan, oilada farzandlarning ko‘p turmasligi, uzoq yashamay vafoti kuzatilsa xuddi o‘zbeklarda uchragani kabi eroniylarda ham O‘lmas (“o‘lmaydi”) deb chaqaloqni nomlashadi, yoki yaratgan umrini uzoq qilsin, deb Umriya ismi qiz bolaga qo‘yiladi.

Dala tadqiqotlari davomida axborotchimiz Mohira opaning onalari ismi Nozukgul bo‘lgani sababi tug‘ilgan chaqaloq judayam kichik, nimjon bo‘lgani uchun katta bobolari “Nozikkina nimjon bo‘lsa-da shu go‘dakkina ham yashab ketsin, gulday chiroy olib katta qiz bo‘lsin”, - deb niyat qilganini eslaydi[8].

4. Xuddi o‘zbeklarda bo‘lgani kabi Buxoro eroniylarida ham, vafot etgan yaqini, qarindoshi xotirasini hurmat qilib farzandini ularning ismi bilan atash an‘anasi mavjuddir. Xususan, bobosi, bibisi, otasi, onasi ismi qo‘yilsa, bunday farzandlarga “dadeykam, oteykam, padaram”, “modaram, nanajon, onem, oneykam”, aka-uka, opa-singillar ismi qo‘yilgan bo‘lsa, “jigaram, apeykam, dodaram, xoxaram” deb murojaat qilinadi.

5. Buxoro eroniylarida Qur‘on bilan bog‘liq bo‘lgan islomi, xususan, payg‘ambarlar, imomlar, avliyolar ismlarini qo‘yish ham keng tarqalgan. Masalan: Muhammad, Ali, Hasan, Huseyn, Abdullo, Ismoil, Rizo, Ahmadali, Ibrohim, Ja‘far, Fotima, Xadicha, Zaynab, Zahro va boshqalar.

**NATIJALAR.** Chaqaloqqa ism qo‘yish tarixan totemizm, shomonlik, afsungarlik, ajdodlar e‘tiqodi kabi qadimiy diniy e‘tiqod va topinishlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Yoshi ulug‘,

sohibduo\* Halima bibi: “Bolaga ism qo‘yishda juda ehtiyyotkorlik zarur, noto‘g‘ri tanlangan ism, keyinchalik farzandni o‘z ismidan uyalishiga sabab bo‘ladi”, -deydi. Ayrim ismlar esa, bolaga og‘irlik qilishi oqibatida bola bu ulug‘ nomni ko‘tara olmay, baxtsizlikka uchrashi ham mumkin, degan fikrlarni ilgari suradi[9].

Uzoq yillar farzand ko‘rmayotgan oila a‘zolari, “Oshuro oyida” husayniya xonalarda Imomlar haqqiga duolar qilib, farzand tilab, niyat qilib sham yoqishadi. O‘g‘il farzand talablar Hazrat Ali, Imom Hasan, Imom Huseyn, Abul Fazl Abbas, Ali Azg‘ar, Ali Akbar yoki qiz istaganlar esa Fotimayi Zahro, Zaynab, Ruqiya kabi “Ahli bayt”\* sohib va sohibalari xotirasini eslab sham yoqishadi. Shundan so‘ng dunyoga kelmagan bolaga “Ramziy ism” qo‘yiladi. Sham egalari o‘g‘il ko‘rsam Ali Akbar, qiz ko‘rsam ismini Ruqiya qo‘yaman deb niyatlar qilishadi. Bu tilaklari amalga oshishiga ular chin dildan ishonishadi. Farzand dunyoga kelgach esa, ular niyat qilgan “Ramziy ismlar”i qo‘yiladi. Orzusiga yetgan farzand talablar imkoniyatlari darajasida, husayniya xonalarga is, sambo‘sa, Hazrati Ali Abbas kulchasi, holvalar, turli xil shirinliklar, yeguliklar olib kelib tarqatishadi.

Dala tadqiqotlari jarayonida, Buxoro eroniylarida tug‘ilgan chaqaloqning sochi bir yoshga yetmaguncha olinmaydi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, qanchalik soch olinmay, uzun bo‘lsa bolaning umri ham uzun bo‘ladi, degan tushuncha va tasavvurlarga ishonilgan. Chaqaloq yoshidan o‘tgach, yoshi ulug‘ bobo-bibilar, ya’ni go‘dakning ismini qo‘ygan kishi, sochiga “qaychi urib berishadi”\*[10].

Muhammad alayhissalomning qizlari Fotima va Ali ibn Abu Tolibdan tarqalgan avlod “saidlar” deb ataladi[11].

Saidlar, kelib chiqishi fors-tojik bo‘lmasalar-da, ular allaqachon Buxoro eroniylari bilan qorishib ketishgan. Buxoro eroniylari ismlariga e‘tibor qaratsangiz ularning saidlar oilasi vakillaridan ekanliklari ham ma‘lum bo‘ladi. Saidlarning xonardonida o‘g‘il farzand tug‘ilsa “said”, qiz

\* sohibduo - hurmati baland, ikki nikoh ko‘rmagan, el-ulus ichida yoshi ulug‘ qariya.

farzand tug‘ilsa isimiga “begim” qo‘shib aytildi. Said Huseyn, Said Murtazo, Said Komil, Said Ja‘far, Munirabegim, Muhamarrabegim, Hamidabegim, Ruqiyabegim, Zahrobegim deb murojaat qilinadi.

Hozirgi kunda ayol tomondan, saidzodalarga borib taqaladigan oilada o‘g‘il farzand dunyoga kelsa “mirzo”, qiz farzandga “sulton” nisbalari ismlariga qo‘shib aytilishi an‘anasiga e‘tibor berishadi. Masalan: Mirkamol mirzo, Bobur mirzo, Sattor mirzo, Muslima sulton, Sakina sulton, Saida sulton[12].

**XULOSA.** Buxoro eroniylari azaldan bolaning sog‘lom o‘sishi, uzoq yashab ketishi, kelgusida baxtli bo‘lishini unga qo‘yiladigan ism bilan bog‘lashadi. Xalqimizda farzandga muvaffaqiyatlari, to‘g‘ri tanlangan ism, berilgan nom uning taqdirlini o‘zida mujassam qiladi, kishi o‘z ismiga o‘xshaydi, deb ishonishadi. “Ism – insonning ziynati”, “Go‘zal ism – yarim rizq”, “Ismi jismiga monand” -degan naqlar yuradi el orasida. Hadisi shariflarda ota-onaning farzandi oldidagi uch muhim burchidan biri chiroyli ism tanlash ekani alohida ta‘kidlanadi. Shuning uchun ham, kishi farzandi uchun to‘g‘ri va ma’noli ism tanlashi o‘ta muhim, e‘tibor bilan yondashishi shart bo‘lgan masala sifatida qaraladi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Davlatova S. O‘zbek kiyimlari atamalari izohli lug‘ati. –Toshkent.: Yangi nashr. 2017. -B.92.
2. Yo‘ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an‘analari. - T.: Ijod dunyosi nashriyoti. 2003. -B. 9.
3. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma‘nosи.-T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2007.-B.176.
4. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati. Buxoro shahri, Kunji qal‘a ko‘chasi. 2022-yil, mart.
5. Xotin-qizlar ensiklopediyasi.-T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2002.-B. 202.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/sopostavitelnyy-istoriko-literurnyy-analiz-obraza-garshaspav-aveste-v-shah-name-firdousi-i-v-garshospname-asadi-tusi.pdf>

\* ahli bayt - payg‘ambar avlodlari, Ali va Fotimadan davom etgan avlodlar nazarda tutiladi.

\* Go‘dak sochidan bir qismini qirqib berishadi.

7. Холназаров Р.М. Таҳлили лингвистӣ, гендерӣ ва омории антропонимҳои ноҳияи Лахш: Д.Д./Холназаров Р.М.-Душанбе. 2019.-С.118.
8. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati. Buxoro shahri, Ko‘ksaroy ko‘chasi. 2025-yil, mart.
9. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati. Kogon tumani, Zirabot MFY, 2024-yil, iyul.
10. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati. Buxoro shahri, Jo‘ybor ko‘chasi. 2016-yil, sentabr.
11. Islom ensiklopediyasi.-N.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2004. -B.27.
12. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati. Buxoro shahri, Mushfiqiy ko‘chasi. 2023-yil, noyabr.



TAMADDUN NURI